

TABIATNI SEVISH, VA UNI ASRAB-AVAYLASH BIZNING ASOSIY VAZIFALARIMIZDIR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19273970>

Ro`ziyeva Nazira Yodgorovna

ruzievanazira911@gmail.com

Choriyeva Sarvara Absalomovna

Choriyevasarvara1@gmail.com

Panjiyeva O`g`ilshod Baxodir qizi

ogilshodpanjiyevs@gmail.com

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o`qituvchilari.

Anotatsiya

Ushbu maqolada hozirgi zamonda dolzarb bo`lib hisoblangan masala, ya`ni tabiatni asrash va e`zozlash orqali ekologik tarbiya berish va atrof olamga ijobiy shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali o`quvchilarni tabiatdagi o`rnini oshirib borish ta`lim-tarbiyani tashkil etish haqida so`z yuritiladi. Tabiatni saqlash, uning go`zalligini kelajak avlodlarga yetkazish, bizning jamiyat oldidagi mas'ulligimiz haqida bayon etilgan.

kalit so`zlar

Ekologik muammolar, tabiiy boyliklardan, ekologik tarbiya, ekologik ta`lim, ekologik dunyoqarash, atrof-muhitga, amosfera havosi, aholi sog`ligi, tabiatni muhofazasi.

KIRISH QISM: 2019-2028-yillar davrida O`zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasining "Yo`l xaritasi" da ximoya etiladigan tabiiy hududlarning umumiy maydoni mamlakat hududining 12 foizini tashkil etishiga erishish belgilab berilgan edi. Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishdan tabiatda ro`y beradigan jarayonlarning o`zaro bog`likligi va rivojlanishi qonuniyatlari haqidagi bilimlar katta ahamiyatga ega. Bu siz tabiiy jarayonlarga baho berish, ularni xisobga olish, tabiatga, tabiat komponentlariga ko`rsatilgan har qanday ta`sirning kelajakda qanday oqibatlarga olib kelishini oldindan bilish mumkin emas. Insonning tabiat bilan o`zaro ta`siri jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish usullari mukammallasha borgan sari jadallashadi, tabiatdan, uning boyliklarini, qurilish va ishlab chiqarish texnikasi, aloqa vositalari yirik shaharlarni o`zgartirib, yirik vohalar, madaniy landshaftlar yaratishga, hosildor ekin hamda mevalar, mahsuldor chorva mollari yetishtirishga imkon beradi. Lekin ba`zan chuqur o`rganmasdan inson qudratiga ortiqcha baho berib, tabiatga ta`sir ko`rsatish

tabiatni foydalanib bo'lmaydigan holatga, uning buzilishi va ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Bunday manzara insoniyatning butun tarixi mobaynida kuzatiladi. insonning tabiatdan foydalanish ko'лами uncha katta bo'lmagani uchun inson faoliyatining 5-iyun – Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni munosabati bilan ekologik muammolarni bartaraf etish, ona tabiatning sofligi, tabiiyligini asrab-avaylash va kelgusi avlodga butunligicha yetkazish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Tabiat inson hayotining asosi, uning eng sodiq va mehribon do'stidir. U nafaqat hayot uchun zarur manbalar bilan ta'minlaydi, balki ruhiy osoyishtalik va estetik zavq ham bag'ishlaydi. Tabiat insonning ijodkorlik ilhomini uyg'otadi va unga tinchlanish imkonini beradi. Tabiat bizga nafas olish uchun toza havo, hayot uchun zarur suv va oziq-ovqat beradi. Masalan, daraxtlar orqali kislorod olamiz, daryolar esa ichimlik suvi manbai bo'lib xizmat qiladi, dalalarda yetishtirilgan hosillar esa bizning oziq-ovqat ehtiyojlarimizni qoplaydi. Undagi go'zallik va sokinlik inson qalbini yayratadi, unga kuch-quvvat bag'ishlaydi. Masalan, bahorda yashillik bilan qoplangan daladashlarda sayr qilgan inson o'zini xuddi yangi kuch va energiya bilan to'lgandek his qiladi. Shuning uchun tabiatni insonning eng yaqin do'sti deb atashimiz mumkin. Tabiat insoniyatga cheksiz va qimmatbaho boyliklarni taqdim etadi. Havo, suv va tuproq - bular hayotning uch asosiy manbasi hisoblanadi, chunki ularsiz tiriklikni tasavvur qilib bo'lmaydi. Havo insonning nafas olish uchun zarur, daraxtlar esa uni tozalab, yangi kislorod bilan boyitadi. Suv esa hayotning asosi bo'lib, ichimlik suvi sifatida insonlar uchun, sug'orish suvi sifatida esa dehqonchilik uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, suv baliqchilik, elektr energiyasi ishlab chiqarish va boshqa sohalarda foydalaniladi. Tabiat bizga o'zining o'simliklari va hayvonot dunyosi orqali ham ulkan ne'matlar beradi. O'simliklar dalalarda yetishtirilgan hosil ko'rinishida oziq-ovqat, dorivor o'simliklar esa shifobaxsh vositalar sifatida xizmat qiladi. Hayvonot dunyosi esa insonlarni go'sht, sut, jun kabi foydali mahsulotlar bilan ta'minlaydi. Masalan, asalari bizga asal beradi, qoramollar esa sut va go'sht mahsulotlarini taqdim etadi. Daraxtlar nafaqat havoni tozalaydi va estetik go'zallik baxsh etadi, balki insonlarga mazali mevalar, yog'och va soya taqdim etadi. Ammo insonning tabiatga nisbatan ehtiyotsizligi va beparvoligi ko'plab ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Buning natijasida daryolar ifloslanadi, o'rmonlar kesiladi, yerdagi resurslar kamayadi, va atmosferaga zararli gazlar chiqariladi. Bu faqat bugungi kunimizni emas, balki kelajak avlodlarning hayotini ham tahdid ostiga qo'yadi. Tabiatni saqlash, uning go'zalligini kelajak avlodlarga yetkazish, bizning jamiyat sifatidagi mas'uliyatimizdir. Ekotizimlar vaziyati bo'yicha tarbiya berishda otabobolarimizning odatlarini, udumlarini tarbiyalab borish tabiiy boyliklarni

ko'paytirish, bog'u-roq'lar, gulzorlar tashkil qilishga undash, qalbida yaxshi xislatlar uyg'otishdan iboratdir. Shuningdek, tabiat va nabodotni asrash, avaylash va qadrlash orqali ekotizimlar vaziyati bo'yicha tarbiya berish jarayonida unib kelayotgan yosh avlodga boyliklarini tejab-tergashga, fusunkor va jozibali tabiat va nabodotni ximoya qilishga da'vat etadi.

XULOSA:. Tabiatni saqlash, uning go'zalligini kelajak avlodlarga yetkazish, bizning jamiyat sifatidagi mas'uliyatimizdir bugun yoshlarning voyaga yetish vaqtida jamiyatdagi hayoti davomida, butun yer taqdiri uchun mas'ullik hissini singdirgan holda ta'lim-tarbiyani tashkil etish shart. Shuning uchun ularda fusunkor va jozibali tabiat va nabodotga muhabbat, barcha tirik mavjudotlarga hurmat, o'zlarining fusunkor va jozibali tabiat va nabodotdagi ichki dunyosining oqibatlarini oldindan ko'ra bilish qobiliyatini shakllantirish juda muhimdir

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Shamshetova A. «Ekologik ta'lim-tarbiyaning psixologik- pedagogik jihatlarini» Xalq ta'limi. – Toshkent. -2009. -2-son. -B. 113117
2. Xolliev I, Ikromov A Ekologiya (kasb- hunar kollejlari uchun) o'quv qo'llanma Toshkent – Mehnat nashriyoti -2001y-207 b
3. Ergashev A. Umumiy ekologiya. - T.: O'zbekiston, 2003. - 464 b.
4. Ismoilova Sh. «Ekologik madaniyatni shakllantirishda interfaol uslublar» Xalq ta'limi. – Toshkent, – 2008. -2 – son. – B. 38-42.